

## AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI - SHAXS HUQUQ VA ERKINLIKLARINING MUSTAHKAM KAFOLATI

**Sadikova Shaxnozahon Muhammadsobirovna**

**Andijon Yuridik Texnikumi o'qituvchisi**

**+998941098209**

**tekinacc@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19640439>**

**Annotatsiya:** Maqolada aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasi, prezumpsiyaning asosiy jihatlari, uning mazmun – mohiyati, milliy va xorijiy normalar asosida tahlil qilinadi, prezumpsiyaning jamiyat hayotidagi bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Aybsizlik prezumpsiyasi, jinoyat ishi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, gumon qilinuvchi, isbotlash, jinoyat protsessi, demokratik prinsip,

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida inson va uning sha'ni, qadr qimmat, huquq va manfaatlarini himoya qilinishi eng oliy maqsad sifatida belgilandi. 2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi vazifa va maqsadlari asosida o'tkazilgan chora – tadbirlar, insonning hayotini munosib darajada yashashga imkoniyatlarni kuchaytirdi. Jumladan insonning huquqiy kafolatlari ichida eng asosiysi deb e'tirof etiladigan - aybsizlik prezumpsiyasi mazmun mohiyati yanada kuchaytirildi. Aybsizlik prezumpsiyasi o'zi nima va uning mazmun mohiyati qanday yuridik kafolatni o'z ichiga oladi?

Aybsizlik prezumpsiyasi umumhuquqiy norma bo'lib, unga amal qilish jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ustuvor hisoblanadi. U shaxs huquqlarini himoya qilishning eng muhim kafolatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 28 – moddasi “ Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi “ deb belgilab qo'yilgan. Ushbu moddadagi qoida aybsizlik prezumpsiyasiga to'la mos keladi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 4 – moddasi ikkinchi qismida “ Hech kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas “ ligi aniq belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 23 - moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etganlikda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi, deb mustahkamlangan.

Yuqorida keltirilgan qonun normalari mamlakatimizda jinoyat protsessida jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining aybsizligi faraz qilinishi, isbotlanmagan aybi bo'yicha oqlov hukmi chiqarilishi va sudlanuvchining to'liq rehabilitatsiya qilinishini ko'rsatadi. Aynan ushbu qoidalar ham aybsizlik prezumpsiyasining mazmunini ifodalaydi, barcha faraz va gumonlarning sudlanuvchi foydasiga hal etilishini bildiradi. Suddan tashqari shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topishga hech qanday organ yoki mansabdor shaxs haqli emasdir. Ma'lum shaxsni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topishda va unga

nisbatan jazo chorasi tayinlashda yoki uni aybi isbotlanmaganligi, asoslanmaganligi uchun noxaq javobgarlikka tortilganligini reabilitatsiya qilishda hal qiluvchi ovozga faqatgina sud egadir.

**Aybsizlik prezumpsiyasi** – yuridik javobgarlikka tortish jarayoniga jalb etilgan shaxsning aybsizligi ehtimolidir. Bu prinsipga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar ular aybsiz hisoblanadilar. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Ya'ni u bunga majbur emas. Ushbu vazifa sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuklatiladi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar shaxsni yuridik javobgarlikka tortish bo'yicha yakuniy xulosa chiqarishdan oldin uning aybdorligini isbotlovchi ishonchli dalillarni to'plashi kerak.

Agar bu harakat amalga oshirilmasa, ushbu prezumpsiyaga muvofiq shaxs aybsiz hisoblanadi va javobgarlikdan ozod etiladi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

Yuridik adabiyotlarda prezumpsiya odatda qonunchilik texnikasi usuli yoxud mantiqiy xulosa sifatida ko'riladi. K.B.Kalinovskiy va A.B.Smirnovlar ta'kidlaganidek, "har qanday prezumpsiya - huquqiy norma bo'lib, bir yuridik faktning bo'lishi tufayli boshqa yuridik fakt ham unung aksi isbotlanmagunga qadar tan olinadi." Uning mazmuni anglash uchun, lug'aviy ma'nosini tahlil etish lozim.

1. Ehtimolikka yoki tahminga asoslangan faraz;
2. Faktning aksi tasdiqlanmaguncha, shu faktni to'g'ri deb topish

"Prezumpsiya" atamasi lotincha - "taxmin" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, olimlarning fikriga ko'ra quyidagi ma'nolarni anglatadi

- oldindan foydalanish
- taxmin qilish, kutish
- e'tirozlarni rad etish, oldindan bilib olishdan, barvaqtlikdan saqlanish
- muddatidan oldin foydalanish.

Aybsizlik prezumpsiyasini jinoyat protsessining prinsiplaridan biri sifatida tasavvur etish uzoq tarixiy davrlardan boshlanadi, bir necha asrlar oldin dunyoga kelgan, demokratik islohotlar davridayoq muhim ahamiyat kasb etgan muhim huquqiy qoidadir. Bu prinsipning ildizlari qadimgi axloq normalariga borib taqaladi, ya'ni insonning yomonligi aniqlanmagunga qadar yahshi odam hisoblaniladi. Fransiyada 1789 yilda qabul qilingan Inson va fuqarolar huquqlari Deklaratsiyasida ushbu tushuncha o'zining aniq ifodasini topgan: "Har bir inson aybdor deb e'lon qilingunga qadar (sud tomonidan) aybsiz deb taxmin qilinar ekan, zaruriyat tug'ilganda uni qo'lga olishda qo'llanilgan ortiqcha qattiq chora qonun bilan qat'iy jazolanishi lozim" ( 9-modda). Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, "Praesumptio juris" tamoyili sudlanuvchi manfaatlariga xizmat qilib, aybi isbotlangunga qadar uning aybsizligini nazarda tutadi".

Y.Nikiforova ta'kidlaganidek, "Shaxsning jinoyat sodir etganlikda aybdorligi haqidagi xulosa tahminlarga asoslanishi mumkin emas va shubhasiz yetarli dalillar bilan isbotlanishi

lozim. Ayblovni tasdiqlaydigan ishonchli dalillar bo'lmagan taqdirda ish yuritish tugatiladi yoki oqlov hukmi chiqariladi.

Aybsizlik prezumpsiyasining zamonaviy tushunchasi Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt, Asosiy erkinliklar va inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya, Inson va Xalqlar huquqlari Afrika Xartiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda o'z bayonini topgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasini xorijiy davlatlar miqyosida tahlil etamiz.

Jumladan, **Niderlandiya** misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Niderlandiya jinoyat - protsessual qonunchiligida "ayblanuvchi" degan terminni ishlatmaydi va gumon qilinuvchi bilan ayblanuvchi o'rtasidagi aniq farqlarni ham ko'rsatmaydi. Jinoyat sodir etgan shaxs ham ish yuritishning sudgacha bo'lgan davrida, ham sudda ishni ko'rish jarayonida "Gumon qilinuvchi" maqomida ishtirok etadi, yani, rasman ayblov e'lon qilingandan keyin ham shaxs ushbu maqomini saqlab qoladi. Niderlandiya jinoyat - protsessual kodeksida aybsizlik prezumpsiyasi aniq qoida sifatida mustahkamlab qo'yilmagan bo'lsada, Yevropa Konvensiyasining 6 - moddasidagi jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning ishi qonunda belgilangan tartibda ko'rib isbotlanmagunga qadar aybsiz hisoblanadi, degan qoida tan olinadi. Isbotlash standartlari mazmuniga ko'ra shaxsning haqiqatda shaxsning jinoyat sodir etgan yoki etmaganini sud hal qiladi. Qaror ayblov aktiga (indictment) ga asoslanishi kerak.

**Chehiya** jinoyat - protsessual kodeksiga muvofiq sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan ayb isbotlanmaguncha unga qarshi ish yuritilayotgan shaxsga aybdor sifatida qarash mumkin emas. Bu prinsip sifatida Konstitutsiyaning 40 - moddasida ham mustahkamlangan. Xalqaro prinsip sifatida esa Yevropa Konvensiyasining 6- moddasida aks etgan. Oliy sud qaroriga ko'ra shaxsning ishi sudda ko'rib aybi isbotlanmaguncha OAV shaxsni aybdor yoki jinoyatchi sifatida ko'rsatmasliklari kerak. Sud tomonidan jinoyat haqida ma'lumotlar yoritilishida shaxslarning ismi - shariflaridagi bosh xarflardagi qisqartmalardan foydalanishga ruhsat beradi. Chehiya jinoyat - protsessual kodeksining 32 - moddasiga ko'ra ayblanuvchi deganda jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxs tushuniladi. Shaxs jinoyat sodir etganlikda ayblangan vaqtdan boshlab shu maqomga ega bo'ladi.

**Belgiyada** aybsizlik prezumpsiyasi huquqning umumiy prinsipi sifatida qaraladi. Qonunda belgilangan tartibda isbotlanmagunga qadar hech kim aybdor hisoblanmaydi. Shuningdek shaxs o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas, u prokurorning majburiyati. Qilmishga nisbatan shubhalar mavjud bo'lganda shaxs oqlanishi kerak. Bu prezumpsiya butun tergov jarayoniga ham tatbiq etiladi. Shuningdek, dalillarni tekshirishga xos bo'lgan prinsiplar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- isbot qilish majburiyati tergov organlari zimmasiga yuklatilgan;
- qilmish isbotlash standartlari asosida olib borilishi kerak;
- dalillarga baho berish sudga qoldiriladi.

Mazkur prezumpsiya shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan vaqtdan boshlab qo'llaniladi.

**Esto'niya** qonunchiligiga muvofiq, hech kim unga nisbatan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirmagunga qadar jinoyat sodir etganlikda aybdor sifatida qaralishi mumkin emas. Jinoyat ishini yuritishda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining aybdorligiga oid bartaraf etilmagan shubhalar ularning foydasiga xizmat qiladi. Aybsizlik prezumpsiyasi Esto'niya Konstitutsiyasi

darajasida tartibga solingan. Unda yuqoridagi qoidalar bilan birga hech kim o'ziga va yaqinlariga qarshi ko'rsatuv berishga majburlanishi kerak emasligi mustahkamlangan. U hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng ahamiyatini yo'qotadi. Ayblov hukmi belgilangan tartibda o'rganilgan dalillarga asoslanishi kerak. Esto'niya Yevropa Ittifoqi a'zosi sifatida 2016 yilgi Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan qabul qilingan jinoyat ishi bo'yicha aybsizlik prezumpsiyasining ba'zi jihatlarini va sud huzurida bo'lish huquqi kuchaytirish to'grisidagi Direktiva qoidalarini tan oladi.

**Kanada** aybsizlik prezumpsiyasi vakolatli organ tomonidan aybdorlik to'g'risida qaror chiqmagunga qadar gumon qilinuvchiga ishga dahli bo'lmagan shaxs sifatida qarash deganidir. Bu qoida mansabdor shaxslarga qay tartibda ish yuritish kerakligini ko'rsatadi. Prezumpsiya jinoyat protsessining har qanday bosqichida qo'llaniladi. Davlat jinoyat sodir etgan shaxs aybini isbotlash uchun dalillar to'plashi kerak. Shaxs o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas, u ko'rsatuv berishdan bosh tortishi ham mumkin.

**Koreya Respublikasi** jinoyat - protsessual qonunchiligida aybsizlik prezumpsiyasi mustahkamlangan. Unga ko'ra shaxsning aybi isbotlanmagunga qadar u aybsiz sanaladi. Konstitutsiyasining 4 - moddasiga ko'ra esa verdikt chiqmagunga qadar sudlanuvchi aybsiz hisoblanishi haqida gap ketadi. Konstitutsiya aybsizlik prezumpsiyasida gumon qilinuvchini nazarda tutmaydi. Koreya qonunchiligi gumon qilinuvchining shaxsni himoya qiladi. Jinoyat kodeksi va Milliy Politsiya agentligi yo'riqnomalari bo'yicha gumon qilinuvchilar yuzi ko'rsatilmaydi. Jinoyat to'g'risida berilayotgan xabarlar mazmuni cheklanishi kerak. Xabar shaxsning daxlsizligiga daxl qilmasligi va oldindan aniq xulosa berilmasligi kerak.

**Yaponiya** qonunchiligi bo'yicha aybsizlik prezumpsiyasi deyilganda shaxsning ishi sudda ko'rilib unung aybi isbotlanmaguncha hech kim aybdor hisoblanmaydi. Yaponiya jinoyat sudlov tizimiga ko'ra prokuror dalillar bilan shaxsning aybdorligini isbotlab bermasa, sud shaxsni oqlaydi. Bu tartibda xulosa qilish mumkinki, isbotlash majburiyati prokurorlarga yuklatilgan. Bu prezumpsiyaning shaxsni ushlab turish yoki qamoqqa olish ehtiyot chorasining qo'llanilishiga aloqasi yo'q va bu choralarning qo'llanilishi prezumpsiyaning buzilishiga olib kelmaydi. Shaxs o'zini aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Dalillarga baho berish jarayonida kelib chiqadigan shubha gumonlar ayblanuvchi foydasiga hal etiladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aybsizlik prezumpsiyasi bo'yicha shaxsning aybi sudda tegishli tartibda isbotlanmaguncha uni jinoyatchi, huquqbuzar yoki insofsiz shaxs deb tan olinishi mumkin emas. Aybsizlik prezumpsiyasi isbotlash jarayoniga ta'siri ishning holatlarini tekshirishda ayblovchi yondashuvga yo'l qo'yilmasligini bildiradi. Ayblov farazga asoslanishi mumkin emas va faqat sud muhokamasi davomida sudlanuvchining aybi isbotlangan va ayblovning isbotiga nisbatan har qanday shubha, gar uni bartaraf etishning iloji bo'lmasa, sudlanuvchi foydasiga talqin qilingan taqdirdagini amalga oshiriladi. Agar ayblanuvchining jinoyat sodir etishda ishtirok etganligi to'g'risida yetarlicha dalillar bo'lmasa va qo'shimcha dalillar to'plashning iloji bo'lmasa, u aybsiz deb topiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi .2025 yil . [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi. 2025 y. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksiga sharhlar. Toshkent. 2009 yil.
5. Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Bill. Toshkent. Adolat. 1992 y.
6. "Uzbekistan i mejdunaronnoye dogovornoye pravo". Uchebnoye posobiye. Tashkent. 2003 god.
7. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt. NORMA. 2000 y.